



UO'K:

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA OLIY TA'LIM TIZIMI AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR (1991-2000)

СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ПОСЛЕ ОБРЕТЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ:
ПЕРВЫЕ РЕФОРМЫ (1991-2000)

POST-INDEPENDENCE HIGHER EDUCATION SYSTEM:
INITIAL REFORMS (1991-2000)

¹**Ikromova Mubinoxon Nodirbekovna** 

Yangi asr universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (Arab tili) ta'lim yo'nalishi talabasi

²**Salayev Ixtiyor Baxtiyorovich** 

Yangi asr universiteti

Аннотация

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, barcha sohalar qatori ta'lim tizimini, ayniqsa, oliy ta'limni tubdan isloh qilishni o'zining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab oldi. Chunki zamonaviy dunyo rivojining asosiy omillaridan biri – bu yuqori malakali, ilg'or bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan inson kapitalidir. Oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash, global ta'lim maydoniga integratsiyalashuvi va mehnat bozorining dinamik talablariga mos kadrlar tayyorlash bugungi kunda milliy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada 1991–2000 yillar oralig'ida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan siyosiy-huquqiy, tashkiliy va pedagogik islohotlar, xalqaro standartlarga integratsiyalashuv jarayonlari, oliy ta'limda sifatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning mexanizmi, samaradorligi va natijalarining tahlil qilinadi.

Аннотация

С первых лет обретения независимости Республика Узбекистан определила кардинальное реформирование всех сфер, в частности системы высшего образования, в качестве одного из своих приоритетных стратегических направлений. Это связано с тем, что одним из ключевых факторов современного мирового развития является человеческий капитал, обладающий высокой квалификацией, передовыми знаниями и навыками. Обеспечение конкурентоспособности системы высшего образования, её интеграция в глобальное образовательное пространство и подготовка кадров в соответствии с динамичными требованиями рынка труда сегодня стали неотъемлемой частью национального прогресса. В данной статье рассматриваются политико-правовые, организационные и педагогические реформы, осуществлённые в системе высшего образования Узбекистана в период 1991-2000 годов, процессы интеграции в международные стандарты, а также анализируются механизмы, эффективность и результаты мер, направленных на повышение качества высшего образования.

Annotation

Since the early years of independence, the Republic of Uzbekistan has identified the fundamental reform of all sectors, particularly the higher education system, as one of its key strategic priorities. This is because one of the main drivers of modern global development is human capital that possesses high qualifications, advanced knowledge, and practical skills. Ensuring the competitiveness of the higher education system, integrating it into the global educational space, and training specialists in accordance with the dynamic demands of the labor market have today become integral components of national development. This article analyzes the political-legal, organizational, and pedagogical reforms carried out in Uzbekistan's higher education system between 1991 and 2000, the processes of integration into international standards, and the mechanisms, effectiveness, and outcomes of measures aimed at improving the quality of higher education.

Kalit so'zlar: Ta'lim, islohot, bilim, integratsiya, universitet, xalqaro standart, ilm-fan, zamonaviy, hamkorlik, mutaxassis.

Ключевые слова: Образование, реформа, знания, интеграция, университет, международный стандарт, наука, современный, сотрудничество, специалист.

Key words: Education, reform, knowledge, integration, university, international standard, science, modern, cooperation, specialist.

KIRISH

PEDAGOGIKA

Har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan bilan yetib boriladi. U qanday holatda, qayerda rivojlanmasin baribir jahon taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Buni har qanday davlatlarning yuksalishida ilm-fan asosiy omil vazifasini o'tayotganidan ham ko'rish mumkin. Shu bois mamlakatimizda har doim ta'lim jarayoni davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan mamlakatda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish zaruriyati yuzaga keldi. Sovet davridan qolgan markazlashgan boshqaruv tizimi, o'quv dasturlarining eskirganligi, kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy talablarga mos emasligi ta'lim tizimi oldida turgan asosiy muammolar sanalardi. Shu sababli, mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimini milliy qadriyatlar asosida qayta tashkil etish, uni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish, zamonaviy ta'lim tizimi talablariga javob beradigan mahalliy mutaxassislar tayyorlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun** mustaqil O'zbekiston tarixida ta'lim sohasini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi birinchi va muhim hujjat bo'ldi. Ushbu qonun respublika ta'lim tizimining demokratik, insonparvar, milliy va xalqaro andozalarga mos tarzda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda quyidagi asosiy vazifalar belgilanadi:

- davlat tomonidan umumiy o'rta ta'limning majburiyligi va bepul taqdim etilishi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi va izchilligi;
- ta'limning milliy qadriyatlarga asoslanganligi va dunyoviyligi;
- ta'lim muassasalari va ularning maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlash;
- ta'lim muassasalarini davlat va nodavlat turlarga ajratish;
- o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini belgilash va ularni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini joriy etish.

Ayniqsa, oliy ta'lim sohasida 1992-1993-yillarda amalga oshirilgan islohotlar ichida quyidagilar alohida ahamiyatga ega bo'ldi:

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy o'quv yurtlarini qayta tashkil etish va ularning maqomini oshirish: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karomovning 1992-yil 28-fevraldagi farmoniga binoan sakkizta viloyat pedagogika institutiga Toshkent, Nukus, Qarshi, Termiz, Jizzax, Navoiy, Namangan va Farg'ona pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Bu holat davlatning ilmiy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish va respublikaning mintaqaviy markazlarini ilmiy-ta'limiy rivojlanish nuqtalariga aylantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda markazlashtirilgan test tizimini joriy etilishi: 1992-yilda O'zbekiston MDH hududida birinchi bo'lib oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonida markazlashtirilgan test tizimini joriy etdi. Mazkur yangilik qabul jarayonining xolisligi va shaffofligini oshirib, jamiyatning ta'lim tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, kadrlar tayyorlashni davr talabi darajasiga ko'tarish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. 1993-yil 5-fevraldagi 555-sonli "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni bilan oliy o'quv yurtlarida o'qishda yuqori natijalar ko'rsatgan talabalarga davlat stipendiyalarini joriy etish masalalari tartibga solindi. Ushbu farmon orqali yoshlarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, iqtidorli va faol talabalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, oliy ta'limda sifatni oshirish va raqobatbardosh muhit yaratish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Farmon bilan oliy o'quv yurtlarida o'qishda **yuqori natijalarga erishgan, ilmiy izlanishlarga faol jalb etilgan, ijtimoiy faolligi bilan ajralib turgan talabalarga Prezident stipendiyasi, Beruniy, Navoiyning nomidagi, Ulug'bek, Zulfiya, Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Temur nomidagi kabi davlat stipendiyalari** joriy qilindi. Davlat stipendiyasi sovrindori bo'lgan talabalar qo'shimcha stipendiya to'lanishi belgilandi. Talabalar uchun bu stipendiyalar nafaqat moddiy yordam, balki ijtimoiy maqom va nufuzli mukofot sifatida qaraladigan bo'ldi. Mustaqillik yillarida Prezident farmoniga muvofiq, har yili yuzlab iqtidorli talabalar davlat stipendiyalariga loyiq topildi. Mazkur farmon oliy ta'limda rag'batlantirish tizimini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilish bilan birgalikda, oliy ta'lim tizimida kadrlar sifatini oshirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va fan bilan shug'ullanishga undash yo'lida muhim qadam bo'ldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

1993-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 157-sonli "Talaba yoshlarga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi qarori mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan muhim islohotlar qatoriga kiradi. Ushbu qaror talaba-yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yaxshilash, ularning ta'lim olishdagi barqarorligini ta'minlash, shuningdek, bilimli va iqtidorli yoshlarga qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish, talabalarning moddiy sharoitini yaxshilash orqali **ta'lim olishga bo'lgan intilishini rag'batlantirish** maqsadida ishlab chiqildi.

Qaror bilan, talabalar uchun to'lanadigan stependiya tizimi tartib-qoidalari, ularni qo'shimcha moddiy rag'batlantirish choralari va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy (mukofot puli, moddiy yordam puli, ovqatlanish va yotoqxon xarajatlari uchun imtiyozlar) qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirildi. Ushbu qaror oliy ta'limda ijtimoiy adolat, raqobat va rag'batlantirish tamoyillarini mustahkamladi. Talabalarning moddiy ahvolini yengillashtirish orqali ularning o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi. Mustaqillikdan so'ng shakllanayotgan yangi ta'lim siyosatining iqtisodiy poydevorini yaratdi.

1993-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan **Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi** qayta tashkil etildi. Bu qaror oliy ta'lim tizimining siyosiy va tashkiliy mustaqilligini mustahkamlab, uning rivojlanish strategiyasini belgilovchi muhim institut sifatida shakllanishiga yo'l ochdi. Ta'lim muassasalari faoliyatini me'yoriy jihatdan muvofiqlashtirish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi uchun maxsus nizom va reglamentlar ishlab chiqildi. Bu hujjatlar oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy-huquqiy maqomi, boshqaruv tuzilmalari, ilmiy kengashlar faoliyati, o'quv rejaları va dasturlarini ishlab chiqish tartibini belgilab berdi.

Oliy ta'lim mazmunini yangilash borasida ham muhim tashabbuslar ilgari surildi. 1990-yillarning ikkinchi yarmida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, o'quv dasturlarini iqtisodiy va texnologik yangilanishlarga moslashtirish, kasb-hunar yo'nalishlarini kengaytirish orqali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Shu davrda texnika, iqtisod, huquq va xorijiy tillar sohalarida yangi oliy ta'lim yo'nalishlari ochildi.

1993-yilning yana bir muhim voqeasi sifatida, respublikadagi ayrim texnikum va o'rta maxsus bilim yurtlarining bosqichma-bosqich oliy o'quv yurtlariga aylantirilish jarayoniga start berilganini ta'kidlash mumkin. Bu qaror kadrlar tayyorlashda chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirishga o'tish, kasbga yo'naltirilgan bilim berish tizimini kuchaytirishga xizmat qildi.

1993-yil, shuningdek, oliy ta'limda pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha ham muhim yildir. Shu yili oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha yangi dastur tasdiqlandi. Bu tizim asosida professor-o'qituvchilar uchun majburiy 5 yillik qayta tayyorlash kurslari yo'lga qo'yildi.

1994-1995-yillar O'zbekiston oliy ta'lim tizimi tarixida institutsional barqarorlik va zamonaviylashuvga yo'naltirilgan tub islohotlar boshlangan davr sifatida ajralib turadi. Ushbu yillarda amalga oshirilgan islohotlar ta'lim mazmuni, boshqaruv tizimi, xalqaro aloqalar va moddiy-texnik bazani takomillashtirishga qaratilgan edi.

1994-yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tashabbusi bilan respublika bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining rejalashtirilgan ixtisosliklar va kadrlar bozoriga muvofiqlashtirish bo'yicha kompleks tahlillar o'tkazildi. Ushbu tahlillar asosida ayrim ixtisosliklar yopildi, yangi, zamon talablariga mos yo'nalishlar ochildi. Bu esa oliy ta'lim tizimini bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga moslashtirish yo'lidagi dastlabki bosqichlardan biri bo'ldi. Yil oxiriga kelib, ilk bor davlat granti asosida o'qitiladigan talabalar soni kvotalar orqali belgilandi. Bu jarayon respublikada ta'lim olishning ijtimoiy tengligini ta'minlash hamda oliy ta'limga kirishda adolatli tanlov tizimini yaratishga qaratilgan edi.

1994-1995-yillarda oliy ta'lim tizimida xorijiy hamkorlik aloqalarining chuqurlashuvi kuzatildi. Jumladan, Toshkent davlat texnika universiteti, Samarqand davlat universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlari asosida YUNESKO, TEMPUS va DAAD dasturlari asosida qo'shma loyihalar yo'lga qo'yildi. Bu esa xorijiy tajribalarni joriy etish va o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. 1994 yildan O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlagan Tempus dasturi doirasida 20 yil davomida umumiy qiymati 34 million yevrodan ortiq bo'lgan 80 dan ortiq universitetlararo hamkorlik loyihalari moliyalashtirildi. Bu loyihalarda jami 55 dan ortiq O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari va Yevropa Ittifoqining 22 davlatidan hamda 10 ta hamkor davlatdan 150 dan ortiq

PEDAGOGIKA

universitetlar ishtirok etdi. Shu nuqtai nazardan, Tempus dasturi O'zbekistonda oliy ta'limni xalqarolashtirishning umumiy jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, chunki u Yevropa Ittifoqi va hamkor davlatlar universitetlari bilan jadal hamkorlik qilish uchun asos bo'lgan dastur bo'ldi.

Tempus dasturi, ayniqsa, 1997-yilda, yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so'ng, mamlakatda ta'lim islohotlarini qo'llab-quvvatlashning kuchli va samarali vositasi bo'ldi. Tempus loyihalari O'zbekistonda 2011-2012-yillarda qabul qilingan oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha hukumat qarorlarini hayotga tatbiq etishga xizmat qilgani bois dastur so'nggi yillarda yanada dolzarb bo'lib qoldi. O'tgan yillar davomida ko'plab Tempus loyihalari asosan magistratura bosqichida muhandislik, amaliy fanlar, o'qituvchilar malakasini oshirish, ijtimoiy fanlar, menejment va biznes bo'yicha yangi mutaxassisliklarni joriy etish orqali o'quv dasturlarini ishlab chiqishga qaratildi.

Shuningdek, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda Germaniya Akademik Almashinuv Xizmati (DAAD) bilan hamkorlik ham muhim rol o'ynadi. DAADning dastlabki yillardagi faoliyat yo'nalishi asosan Nemis tili va adabiyoti bo'yicha mutaxassislarni jalb etish, xalqaro almashinuv va qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yish, Ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni rivojlantirishga qaratildi. Ushbu faoliyat doirasida DAAD O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti (UzDJTU) bilan hamkorlikda nemis tili va adabiyoti bo'yicha xorijiy mutaxassislarni jalb etdi. Bu mutaxassislar universitetda darslar o'tdi, ilmiy seminarlar tashkil etdi va professor-o'qituvchilarning malakasini oshirishga hissa qo'shdi. Ushbu hamkorlik nemis tilini o'qitish sifatini oshirishga xizmat qildi. Toshkentdagi Plekhanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali DAADning "Barqaror to'qimachilik ishlab chiqarish misolida biznes etikasi" loyihasida ishtirok etdi. Ushbu loyiha doirasida Germaniya, Iordaniya va O'zbekiston universitetlari professor-o'qituvchilari va talabalari o'rtasida tajriba almashinuvi amalga oshirildi. DAAD tomonidan moliyalashtirilgan "Binolarda fanlararo yondashuv" loyihasi doirasida Potsdam amaliy fanlar universiteti va Toshkent arxitektura va qurilish universiteti o'rtasida hamkorlik o'rnatildi. Ushbu loyiha arxitektura, qurilish muhandisligi va restavratsiya sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga qaratilgan edi.

Yuqoridagi loyihalarni amalga oshirishi O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro standartlarga moslashuviga va global ta'lim maydoniga integratsiyasiga xizmat qildi. Umuman olganda, DAAD bilan hamkorlik O'zbekiston oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi, xalqaro aloqalarni kengaytirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'ldi.

Shuningdek, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bir qator oliy ta'lim muassasalarida **axborot texnologiyalarini joriy etish** bo'yicha tajriba loyihalari boshlangan. Jumladan, Toshkent axborot texnologiyalari institutida ilk bor elektron kutubxona va masofaviy ta'lim bo'limlari tashkil etilgan.

1995-yildan boshlab O'zbekiston oliy ta'lim tizimida **xalqaro hamkorlik aloqalari** kuchaytirildi. Jumladan, Germaniya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan o'zaro memorandum va bitimlar asosida ta'lim, stajirovka va ilmiy almashinuv dasturlari yo'lga qo'yildi. Ushbu hamkorlik natijasida xorijiy mutaxassislar ishtirokida qo'shma o'quv dasturlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1997-yil 7-yanvarda "Umid" jamg'armasi tashkil etildi. Uning asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarning xorijiy davlatlarda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlash, ularning zamonaviy bilim va tajriba orttirishlariga sharoit yaratish va bu orqali mamlakatda yuqori malakali kadrlar zaxirasini shakllantirish edi. Jamg'arma orqali 1997–2003-yillar davomida 828 nafar o'zbekistonlik yoshlar Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya kabi rivojlangan davlatlarning yetakchi universitetlarida iqtisodiyot, huquq, xalqaro munosabatlar, axborot texnologiyalari, tibbiyot, muhandislik kabi sohalarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ularning 44 foizi bakalavriat, 56 foizi esa magistratura dasturlarida o'qishdi. "Umid" jamg'armasi nafaqat ta'lim olish imkoniyatini taqdim etdi, balki xorijda tahsil olgan yoshlarning vatanga qaytib, davlat idoralari, xususiy sektor va ilmiy muassasalarda faoliyat yuritishlarini rag'batlantirdi. Bu orqali mamlakatda yuqori malakali kadrlar zaxirasi shakllantirildi.

2003-yilda "Umid" jamg'armasi faoliyati yakunlanib, uning vazifalari "Istedod" jamg'armasiga o'tkazildi. 2018-yilda esa bu yo'nalishdagi ishlar "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan davom ettirila boshlandi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi: 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi oliy ta'lim tizimi uchun strategik burilish nuqtasini anglatdi. Dasturda oliy ta'limni ikki bosqichli (bakalavriyat va magistratura) shaklga o'tkazish, ta'limning mazmunini modernizatsiya qilish, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish kabi tub islohotlar belgilandi. Dastur oliy ta'lim muassasalari faoliyatini bozor iqtisodiyoti, mehnat bozori talablariga mos holda qayta yo'naltirishga xizmat qildi.

Dastur doirasida, shuningdek, ta'lim mazmuni, metodologiyasi, professor-o'qituvchilarning malaka oshirish tizimi va moddiy-texnik bazaning yangilanishi asosiy yo'nalishlar sifatida belgilanib, hukumat sarmoyalarini aynan shu sohalarga yo'naltira boshladi. Dastur asosida, yurtimizdagi yetakchi oliy o'quv yurtlarida ilmiy-metodik kengashlar, ta'lim sifatini monitoring qilish bo'linmalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 1998-2000 yillarda ham oliy ta'lim tizimida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Bosqichli oliy ta'lim tizimiga o'tilishi, ilg'or mutaxassisliklar tizimini yaratilishi, **davlat ta'lim standartlari (DTS)** joriy qilinishi, ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlanishi, tizimni axborot texnologiyalari va material-texnik baza bilan ta'minlanishi va oliy ta'limda moliyaviy mexanizmlarning takomillashuvi kabi islohotlar shular jumlasidandir. Ushbu islohotlar oliy ta'lim tizimini raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlaydigan tizimiga aylantirib, xalqaro ta'lim standartlariga yaqinlashtirish yo'lida muhim bosqich bo'ldi. Shuningdek, ta'limning sifat va mazmunini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish hamda ilm-fan bilan integratsiyani kuchaytirish yo'nalishlarida strategik asos yaratdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 1991–2000–yillar oralig'ida amalga oshirilgan islohotlar O'zbekiston oliy ta'lim tizimining yangi poydevorini yaratgan, tarixiy jihatdan muhim bosqich bo'ldi. Mazkur islohotlar ta'lim tizimini tubdan yangilash, uni zamonaviy talablarga moslashtirish hamda xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo'lida beqiyos ahamiyat kasb etdi. Aynan shu davrda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, xorijiy ta'lim tizimlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi keng ko'lami ishlar amalga oshirildi.

Natijada, O'zbekistonning milliy oliy ta'lim modeli o'zining institutsional asoslarini shakllantirib, mustaqil taraqqiyot yo'lga chiqdi. Ushbu davrda yaratilgan tizim keyingi o'n yilliklarda ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni yuksaltirishga zamin bo'ldi. Shunday qilib, 1990-yillar oxirida boshlangan islohotlar bugungi kunda ham O'zbekiston oliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishida tayanch omil bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi. Ta'lim to'g'risida Qonun (2-iyul, 1992-yil, №631-XII), Oliy Kengash Axborotnomasi, 1992-yil, №7, 177-modda.
2. Xasanboyeva N. Ta'lim sohasidagi qonunchilik asoslari. – Toshkent: Adliya nashriyoti, 2005. – B. 36-38.
3. G'afurov S., To'raxo'jayev Sh. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: Davlat va huquq tarixidan lavhalar. – Toshkent: Adolat, 2003. – B. 130.
4. Hasanov Z. O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2018. – B. 2.
5. Xodjayev N. Ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ijtimoiy-ma'naviy asosi. Pedagogika va psixologiya 4 (12): 2004. – B. 74-75.
6. Rakhimova G. Oliy ta'lim mazmunining modernizatsiyasi: amaliy tajriba va natijalar. Ma'rifat 5: 2006. – B. 87-91.
7. Islomov Sh. O'zbekiston ta'lim tizimidagi yangilanishlar. – Toshkent: O'qituvchi. 2002. – B. 41.
8. Rakhimova G. Oliy ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish bosqichlari // Ilm-fan va texnologiyalar №4: 2006. – B. 96-100.
9. Mamadaliyev B. Oliy ta'limda xalqaro hamkorlik: imkoniyat va muammolar. Toshkent: Fan. 2001. – B. 112.
10. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: O'zbekiston. 2010. – B. 63-65.